IJRO.GOV.UZ тизими орқали ЭРИ билан тасдиқланган, Ҳужжат коди: LL04522943

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATIONS
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 7-uy. Tel.: (998) 55-520-08-08, e-mail: devonxona@edu.uz, edu@exat.uz, veb-sayt: www.edu.uz

2025-yil 24-dekabr 02/12-4/1-11786-son

Oliy ta’lim tashkilotlari rektorlari (direktorlari)ga

nusxasi: **YUNESKO ishlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy komissiyasiga** *(ma’lumot uchun)*

2025-yil 19-dekabrdagi 383/25-sonli xatga muvofiq

YUNESKO tashkiloti tomonidan Arab madaniyati uchun YUNESKO/Sharja mukofoti e’lon qilingan bo‘lib, mukofot miqdori 60.000 AQSH dollarini tashkil etadi hamda ikki laureat o‘rtasida teng taqsimlanadi.

YUNESKO/Sharja mukofoti arab madaniyatini xalqaro miqyosda keng targ‘ib qilish va rivojlantirishga ulkan hissa qo‘shgan atoqli olim, olimlar guruhi yoki ilmiy muassasaga taqdim etilishi belgilangan. Mukofot talablariga ko‘ra, tanlovda ishtirok etish istagini bildirgan nomzodlar zarur hujjatlarni onlayn tarzda YUNESKO platformasiga yuklashi kerak.

Mazkur mukofot to‘g‘risidagi batafsil ma’lumot bilan quyidagi havola orqali tanishish mumkin: https://en.unesco.org/prizes/sharjah

YUNESKO/Sharja mukofoti tanlovida ishtirok etish uchun arab madaniyati sohasida faoliyat yuritayotgan olim yoki olimlar to‘g‘risida ma’lumotni **2026-yil 5-fevral kuniga qadar** vazirlikning Xalqaro hamkorlik va reytinglar boshqarmasiga yuborishingizni so‘raymiz (e-mail: sh.eshqobilova@edu.uz).

Ilova: 5 varaq.

Vazirning birinchi o‘rinbosari **S. Radjabov**

Ijrochi: Sh. Eshqobilova
Telefon: (55) 520 08 08 (207)